

OILADA GENDER TARTIBINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Yulduz UMAROVA,
ISFT instituti o'qituvchisi

Annotation

the author, based on an analysis of the works of Russian scientists, highlights the features of the socio-economic, legal, socio-psychological aspects of gender equality in the family. The essence of the "new gender order" phenomenon is revealed, philosophical, economic, political and psychological changes in family functions are outlined, taking into account modern realities.

Key words

family, new gender order, family subjectivity, gender economics, sociogender relations.

Аннотация

в статье на основе анализа работ российских учёных освещены особенности социально-экономических, правовых, социально-психологических аспектов гендерного равенства в семье. Автор раскрывает суть феномена «новый гендерный порядок», философские, экономические, политические и психологические изменения функций семьи с учётом современных реалий.

Ключевые слова

семья, новый гендерный порядок, субъектность семьи, гендерная экономика, социогендерные отношения.

Annotatsiya

maqolada rus olimlari tadqiqotlari misolida oilada gender tengligining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik jihatlari yoritilgan. Muallif "yangi gender tartibi" tushunchasining mohiyati, hozirgi sharoitlarni hisobga olib, oila funksiyalarining falsafiy, iqtisodiy, siyosiy va psixologik jihatdan o'zgarishlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar

subyektivlik, oila, yangi gender tartibi, inklyuziv iqtisodiyot, pandemiya krizisi, tranzitiv iqtisodiyot, gender iqtisodiyot, sotsiogender munosabatlar.

Kirish

Mamlakatimiz olimlari gender resurslari, yangi gender tartibini shakllantirish jarayonida oilaning ijtimoiy subyektivligini ijtimoiy rivojlanish omillari sifatida keng o'rganmoqdalar. Shu ma'noda rus olimlarining gender tengligi borasida amalga oshirayotgan tadqiqotlari o'zbek olimlariga katta tajriba maktabi bo'lishi mumkin. Rossiyalik olimlar oilalarda gender tengligi jarayonining turli ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatlarini atroflicha o'rganmoqdalar. Jumladan, G.G. Sillastening oilada gender tengligi bo'yicha amalga oshirgan izlanishlari qator ilmiy ishlarda o'z ifodasini topgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

G.G. Sillastening gender munosabatlarga oid tadqiqotlari yangi gender tartibini shakllantirishda oilaning ijtimoiy subyektivligini yoritishga qaratilgan. U "Jamiyat kristalli" va jamoatchilik xavotiri haqidagi fikrlarini bayon qilishda V.Gyugoning oilaga bergan ta'rifidan foydalanadi. Oilaga "jamiyat kristalli" degan yorqin nomni bergan buyuk fransuz olimi V.Gyugo jumladan shunday deydi: "Tabiatdagi qattiq jismlar tartibli simmetrik kristallardan tarkib topgani singari, jamiyat ham ko'plab oilalardan tashkil topadi, ulardan har biri, o'z navbatida, atrofdagi olamdagi har bir voqelikni, uning barcha qiyinchiliklar-u muammolarini o'zida aks ettiradi" [1, 14]. G.G. Sillaste Rossiya aholisining 80% ga yaqini oilalarda istiqomat qilayotganini hisobga olsak, oila boshdan kechirayotgan barcha bo'layotgan voqea va hodisalarni, butun rus jamiyati boshidan kechiradi desak, mubolag'a bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi [1, 14]. Jamiyatning bir bo'lagi bo'lmish oila tarixiy kelib chiqishi jihatidan barcha ijtimoiy institutlar – din, davlatdan qadimiy bo'lishiga qaramay, hozirda oilaning buguni va kelajagi atrofida televizor ekranlarini tark etmaydigan va internetda susaymaydigan hissiy janglar guvohi bo'lishimiz mumkin. Oilaga berilgan ta'riflar ichida eng to'g'ri va ilmiy jihatdan asoslisi ijtimoiy ta'rif bo'lib, oila bu – nikoh yoki qondoshlik rishtalari bilan bog'langan kichik guruh bo'lib, oila a'zolari maishiy turmush, o'zaro axloqiy mas'uliyat va bir-biriga yordam ko'rsata olish asosida birlashadi. G.G. Sillaste yuragiga yaqin bo'lgan ijtimoiy tadqiqotlarning empirik ma'lumotlaridan foydalanishni asosiy vazifa etib belgilaydi. Rossiyada oila ijtimoiylashuvi bo'yicha bilimlar sohasi empirik jihatdan eng ko'p o'rganilgan sohalardan bo'lib, unda turli ijtimoiy soha tadqiqotchilari va muayyan ijtimoiy nazariyalar, jumladan: oila sotsiologiyasi, gender va iqtisodiy sotsiologiya, ijtimoiy pedagogika va psixologiya, falsafa hamda tarix sohalari o'zaro kesishishini ta'kidlaydi. Biroq, ijtimoiy vaqt nafaqat oilani o'zgartiradi, balki unga ilmiy yondashuvni o'rganishni ham yangilaydi. Tadqiqotchi, shuningdek, Rossiya jamiyatidagi o'zgargan ijtimoiy muhit hamda dunyodagi oilalarning ijtimoiy o'rnini aniqlab, quyidagi uchta muhim omil ta'sirida o'zgarishini tahlil etadi: dunyoda shakllanayotgan yangi gender tartib, tranzitiv iqtisodiyotdan inklyuzivlikka o'tish, oila funksiyalari hamda subyektivligining o'zgarishi. Muallif gender resurslari yangi

gender tartibini shakllantirish jarayonida oilaning ijtimoiy subyektivligi bo'yicha qator ijtimoiy qarashlarni an'anaviy holatda yoritishga qaratgan.

Ijtimoiy reallikda va mavjud ijtimoiy vaqtdagi oilaning subyektivligi.

Avvalo, shuni aytib o'tish joizki, jamiyatshunoslikda oila va mehnat muammolari eng ko'p o'rganilgan va o'rganilayotgan ijtimoiy voqelikdir.

Bu borada sobiq sovet va Rossiya sotsiologlari A.G. Xarchev, A.I. Antonov, I.V. Bestujev-Lada, S.I. Golod, M.S. Maskovskiy va boshqalarni, shuningdek, AQSh sotsiologlari I. Nay, Dj. Xill, fransuz sotsiologi F. Mishelelarning ishlarini ko'rsatish mumkin. Ular oila munosabatlarini o'rganishda o'z fuqarolik pozitsiyalari, tadqiqot yo'nalishi talablari, amaliyot va ijtimoiy zamon nuqtayi nazarda turli pozitsiya va qarashlardan kelib chiqishgan. Har tomonlama va mukammal o'rganib bo'lingan va turli tadqiqotlar o'tkazib bo'lingan obyektни o'rganish jarayoniga har bir ijtimoiy zamon o'z masalalarini qo'yadi va muayyan o'zgarishlarni kiritadi.

Bugungi kunda ijtimoiy voqelikda oila rivojlanishini o'rganishda holat tahlili nimalarni ko'rsatdi? Birinchidan, jamiyatdagi shakliy o'zgarishlar sababli (muallif K.Marks keltirilgan jumla tomonidan qo'llanmoqda) oila jamiyatdagi o'zni kichik guruh va ijtimoiy institut ko'rinishida emas, yangi sharoitdagi ijtimoiy subyekt sifatida o'rganila boshlandi.

Eslatib o'tish joizki, subyektlik lotincha subjectum – tegishli ma'nosini anglatib, individning yoki ijtimoiy guruhning faol subyekt, g'oyalar yaratuvchisi va tashuvchisi ekanligini bildiradi va tashqi olamga ta'sir etuvchi xususiyatlarini aks ettiradi. Aslini olganda, oila tashqi olamdagi zamonaviy faol subyekt sifatida o'zidan kuchi ta'sir etuvchi kommunikativ institut va ijtimoiy muhitni ifodalaydi.

Ushbu subyekt faqatgina kichik guruhlar hayot tarziga ta'sir o'tkazibgina qolmay, ijtimoiy institutning o'z ta'sirini Rossiya xaritasidagi 80 %ni tashkil etuvchi oilalarda yashovchi insonlar hayotiga ta'sir o'tkazib kelmoqda.

Oilaga subyektlik tarzidagi qarashlar bevosita uning bozor munosabatlari tizimidagi va tranzitiv iqtisodiyotdagi ijtimoiy funksiyalarining kengayishini tahlili bilan bog'liq.

Bunday holatda oila nafaqat kichik guruh sifatida balki keskin rivojlanib borayotgan, o'zida vaqt sayin jamiyatda o'zgarib va jamlanib borayotgan, inson potentsiali o'sayotgan ijtimoiy institut sifatida o'rganib kelmoqda. Bu holat oilaning (oilaviy xo'jalikning rivojlanishida) iqtisodiy jarayondagi (iqtisodiyotning turli jabhalaridan jalb etilgan ishchilarning roli) ishtiroki davomida sodir bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotning subyektli sifatida, oila turli-tuman faoliyat turlarini joriy etadi va iqtisod instituti bilan hamkorlikda uning rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi [1, 14].

Oilaning ijtimoiy subyektivligi va yangi gender tartibi tushunchasi haqida to'xtalib ot-sak. Oila ijtimoiy subyektivligining ikkinchi omili mamlakatlarda tashqi yangi siyosiy qa-

rashlarning kengayishi bilan bog'liq bo'lib, tashqi siyosiy (xalqaro) omili bo'lmish global feminizm g'oyalarini ilgari surish ("BMT ayollari" tuzilmasi faktlarga asoslangan holda) va dunyoda yangi gender tartibini shakllantirishdan iboratdir. Gender tartib, o'z navbatida, uchtalik birlikni taklif etadi, bu ijtimoiy normalar, siyosiy madaniyat va ijtimoiy institutlarning jamiyatdagi gender muammolari va muammolar yechimiga jamiyatda shakllanishiga asoslanadi.

Mass-media fondi Vasiylik Kengashi raisining muovini, Gender tengligi bo'yicha komissiya a'zosi Saida Mirziyoyeva "Zo'ravonlikni birgalikda yengamiz!" xalqaro forumida ishtirok etdi. Ushbu forum 2021-yil 25-noyabr kuni "Zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakat" kampaniyasini o'z ichiga oldi. Kompaniya O'zbekistonda xotin-qizlarni har qanday tazyiqlardan himoya qilishga yordam berishga qaratilgan. Aytish joizki, O'zbekistonda gender tengligi muammosi siyosat darajasiga ko'tarilib, qator ishlar olib borilmoqda.

Yangi gender tartibining bazaviy paradigmasi gender tengligi konsepsiyasini global miqyosda targ'ib etishdan iborat. BMT Bosh kotibi A.Guterrish bayonotiga ko'ra, "Gender tengligiga erishish hamda ayollar va qizlar huquqlarini kengaytirish ular uchun imkoniyatlar yaratish – davrimizning yakun topmagan vazifasi va bugungi kunda inson huquqlari borasidagi dunyodagi eng katta muammodir." [Gender tengligi, 2020]. Ushbu uzoq muddatli muammoni hal qilish uchun BMTning maxsus yangi bo'limi – "BMT – ayollar" tashkiliy tuzilmasi yaratilib, erkak va ayollar gender tengligiga erishish uchun hali ko'p ishlar qilinishi, oldinda qator vazifalar turganligi ta'kidlanmoqda. Gender tenglik konsepsiyasining jahon miqyosida rivojlanishi ikkinchi ming yillik oxiridan boshlandi, lekin faol shakl va maxsus komissiya ko'rinishida 2008-yildan "BMT – ayollari" bo'limi timsolini oldi.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirilgan nazariy tadqiqotlar tahlili natijasida aytish mumkinki, oilalardagi gender muammoni kompleks tadqiq etish zarurati tug'ilmoqda. Ma'lumotlar tahlili asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

Oilalardagi gender tenglik tartibi jarayonining turli ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik jihatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish hozirgi kunda global muamмога aylanayotganligi ma'lum bo'ldi.

Oilalarda gender tengligini o'rganish jarayonida yuzaga keluvchi muammolar dunyoda paydo bo'layotgan yangi gender tartibi, tranzitiv iqtisodiyotdan inklyuzivlikka o'tish, oilaning funksiyalarini o'zgarishi jarayonini falsafiy, iqtisodiy, siyosiy va psixologik jihatdan tadqiq etish gender tenglik barqarorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Г.Г.Силласте. Социальная субъектность семьи в процессе формирования нового гендерного порядка // Женщина в российском обществе 2020. – № 4. – С. 14-26.
2. URL: <https://www.forbes.com/sites/carmenniethammer/2020/03/06/do-women-and-men-have-a-coronavirus-risk-gap/#688a9acc6826> (Murojaat sanasi: 24.09.2023).
3. URL: <https://www.forbes.com/sites/carmenniethammer/2020/03/06/do-women-and-men-have-a-coronavirus-risk-gap/#219aecc46826> (Murojaat sanasi: 13.12.2024).
4. URL: <https://www.superjob.ru/research/articles/1051/farmacevt/> (Murojaat sanasi: 17.01.2024).
5. URL: <https://lenta.ru/articles/2020/04/13/farma/> (Murojaat sanasi: 30.12.2023).
6. URL: <https://tass.ru/obschestvo/5587049> (Murojaat sanasi: 22.09.2023).
7. URL: <https://ria.ru/20200618/1573109268.html> (Murojaat sanasi: 19.10.2023).
8. URL: <https://zona.media/article/2020/05/19/martyrology> (Murojaat sanasi: 07.08.2023)
9. URL: <https://massmedia.uz/oz/news/gender> (Murojaat sanasi: 05.11.2023)